



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRINING  
BUYRUG‘I**

20 25 yil “ 19 ” mart

№ 70

Toshkent sh.

**Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida tibbiy hisob hujjatlarini  
bosqichma-bosqich raqamlashtirish to‘g‘risida**

Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida yuritiladigan tibbiy hisob hujjatlarini raqamlashtirish ishlarini jadallashtirish maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-dekabrda PQ–415-son qarori hamda Sog‘liqni saqlash vazirining 2024-yil 17-dekabrda 384-sonli buyrug‘i bilan **Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami faoliyatini avtomatlashtirish talablarini ishlab chiqish, “Elektron poliklinika” va “Elektron shifoxona” axborot tizimlarini (keyingi o‘rinlarda - Yagona tibbiyot axborot tizimi) takomillashtirilgan talqini ishlab chiqilganligi hamda birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari yuritib kelinayotgan jurnallar va blankalar elektron ko‘rinishga o‘tkazilganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.**

**2. Birlamchi birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida:**

**birinchi bosqichda joriy yilning 1- apreldan boshlab** Sog‘liqni saqlash vazirligi talablari asosida birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida qog‘oz shaklida yuritilayotgan, ambulatoriya-poliklinika muassasasiga kelganlarni qayd etish jurnali 024, shifokorning kundalik qabul jurnali 024-1, akusher-ginekologning (doya) kundalik qabul jurnali 024-2, fizioterapiya hamshirasining kundalik qabul jurnali 031, mehnatga layoqatsizlik varaqasini qayd etish jurnali 036, ta‘lim olayotgan shaxslar uchun mehnatga layoqatsizlik varog‘ini qayd etish jurnali 036-1, oila hamshirasining kundalik faoliyat jurnali 051, emlashni qayd etish jurnali 064, o‘lim guvohnomasini qayd etish jurnali 106, bemorlarni “D” nazoratiga olish jurnali 030- hisob shakllarini (jurnallari va blankalar);

**ikkinchi bosqichda joriy yilning 1-maydan** chaqiruvlarni qayd etish jurnali 023, bemorning ambulator kartasi 025, muolaja xonasida qon namunalari olishni qayd etish jurnali 029, tibbiy jihoz va asbob uskunalarni zararsizlantirishni qayd etish va markaziy sterilizatsiya bo‘limlariga topshirish jurnali 032, asbob uskunalarni qabul qilish va zararsizlantirish jurnali 033, laborator tahlillarni qayd etish jurnali 034, shifokor maslahat komissiyasi xulosalarini qayd etish jurnali 035, bemor bolani parvarishlash uchun layoqatsizlik varog‘ini qayd etish jurnali 036-2, dori vositalari, diagnostikum, reaktiv va tibbiy buyumlarni miqdoriy hisobga olish jurnali 059, muolajalarni qayd etish jurnali 059-1, yuqumli kasalliklarni qayd etish jurnali 060, rentgen tekshiruvlarini qayd etish jurnali (rentgenoskopiya, rentgenografiya) 017, EKG tekshiruvlarini qayd etish

jurnali 024-3, stomatolog ortoped va ortodontning qabul jurnali 025-4, sogʻlom turmush tarzini shakllantirish jurnali 024-5, mastlik holati boʻyicha mehnatga layoqatsizlik varogʻini qayd etish jurnali 036-3, ambulatoriya–poliklinika va shoshilinch (tez) tibbiy yordam koʻrsatish postidan foydalangan byudjet dori vositasi, tibbiy buyumlarni hisobga olish jurnali 059-2, ambulator operatsiyalarni qayd etish jurnali 069-hisob shakllari va boshqa shakl, jurnallar **qogʻoz shaklida yuritish amaliyoti bekor qilinsin.**

**3. Raqamli texnologiyalarni joriy etish va muvofiqlashtirish boshqarmasi (Eshnazarov) Yagona integrator – “Uzinfocom” MChJ bilan birgalikda:**

**joriy yilning 1-aprelga qadar** “Yagona tibbiyot axborot tizimi”da birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida bemorlarni oilaviy shifokorlarga biriktirish, onlayn qabulga yozilish, patronaj, profilaktik koʻriklar, skrining dasturlar va ular natijalarini tahlil etish, bemorlarni qoʻshimcha tekshiruv, konsultatsiya va davolashga yoʻnaltirish va qayta bogʻlanish, elektron retsept (reimbursatsiya) imkoniyatlarini joriy etsin;

respublikaning barcha birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish hamda ushbu tizimga masʼul boʻlgan xodimlarni oʻqitish choralari koʻrsin;

jismoniy shaxsning pasport maʼlumotlari, yashash manzillari, mehnat faoliyati, tugʻulganlik guvohnomasi maʼlumotlari kabi maʼlumotlarni “Elektron hukumat” tizimining idoralararo integratsiyalashuv platformasiga belgilangan tartibda integratsiya qilsin.

**4. Qoraqalpogʻiston Respublikasi sogʻliqni saqlash vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar sogʻliqni saqlash boshqarmalari:**

birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida axborot tizimini ishlatish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilsin, masʼullarni oʻqitishi choralari koʻrilsin;

jurnal va blanklar bosqichma-bosqich elektron shaklda yuritilishini nazoratga olsin;

Bunda, axborot tizimda yuritiladigan jurnal va blanklar asosli hollarda (elektr va internet tarmoqlari uzulishlari boʻlganda) vaqtinchalik jurnallarda qayd etilib, asosli hollar bartaraf etilgan kundan elektron tizimga oʻz vaqtida kiritilsin va asossiz vaqtinchalik jurnallarda qayd etish qatʼiyan man etilsin.

**5. Qoraqalpogʻiston Respublikasi sogʻliqni saqlash vaziri, Toshkent shahar va viloyatlarning birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida tibbiy hisob hujjatlarini bosqichma-bosqich axborot tizimda yuritilishini joriy etish va oʻqitish reja- jadvali ilovaga muvofiq tasdiqlansin.**

**6. Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti (Gaziyeva), Tibbiy sugʻurta boshqarmasi (Almardanov) va Raqamli texnologiyalarni joriy etish va muvofiqlashtirish boshqarmasi (Eshnazarov) qogʻoz koʻrinishdagi jurnallarni bekor qilinishi bilan bogʻliq barcha jarayonlarni toʻliq nazoratga olsin.**

**7. Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti (Gaziyeva), Qoraqalpogʻiston Respublikasi sogʻliqni saqlash vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar sogʻliqni saqlash boshqarmalari:**

**Yagona tibbiyot axborot tizimi** orqali yuritiladigan jurnallar bo'yicha monitoring olib borsin.

8. Mazkur buyruq qabul qilinishi munosabati bilan Toshkent shahri birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida elektron shaklda yuritilib kelinayotgan ayrim jurnallar Yagona tibbiyot axborot tizimida yuritilishi inobatga olinib, Sog'liqni saqlash vazirining "Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida tibbiy hisob hujjatlarini bosqichma-bosqich raqamlashtirish to'g'risida" 2023-yil 28-apreldagi 92-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.

9. Mazkur buyruq ijrosi nazoratini o'z zimmanda qoldiraman.

**Vazir**



**A. Xudayarov**

O'zbekiston Respublikasi  
Sog'liqini saqlash vazirining  
2025-yil "19" 03 dagi  
"70" sonli buyrug'iga ilova

**Qoraqalpog'iston Respublikasi sog'liqni saqlash vaziri, Toshkent shahar va viloyatlarning birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida tibbiy hisob hujjatlarini bosqichma-bosqich axborot tizimda yuritilishini joriy etish va o'qitish**

**REJA- JADVALI**

<b>T/r</b>	<b>Joriy etiladigan hudud nomi</b>	<b>Bajarish muddati</b>	<b>Mas'ul ijrochilar</b>
1.	Toshkent shahar birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari	2025-yil 1 aprel	Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti Onalik va bolalikni muhofaza qilish boshqarmasi Raqamli texnologiyalarni joriy etish va muvofiqlashtirish boshqarmasi Qoraqalpog'iston Respublikasi sog'liqni saqlash vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar sog'liqni saqlash boshqarmalari
2.	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarqand, Toshkent va Sirdaryo viloyatlari birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari	2025-yil 1 may	
3.	Andijon, Navoiy, Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari	2025-yil 1 iyun	
4.	Jizzax, Namangan, Farg'ona va Xorazm viloyatlari birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari	2025-yil 1 iyul	